

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2021.P.26.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**ASHUROV RAMZIDIN RAMAZONOVICH**

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA INTELLEKT  
SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI**

**19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi**

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent–2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)**

**Ashurov Ramzidin Ramazonovich**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida intellekt shakllanishining psixologik determinantlari..... 3

**Ашуров Рамзидин Рамазонович**

Психологические детерминанты формирования интеллекта учащихся младших классов.....21

**Ashurov Ramzidin Ramazonovich**

Psychological determinants of intelligence formation in elementary school pupils ...40

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....44

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2021.P.26.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**ASHUROV RAMZIDIN RAMAZONOVICH**

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA INTELLEKT  
SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI**

**19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi**

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent–2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/P739 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (psi-ik.uz) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Atabayeva Nargis Batirovna**  
psixologiya fanlari doktori, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Qodirov Kamoliddin Botirovich**  
psixologiya fanlari doktori, professor

**Usmonov Sherzod Axmadjonovich**  
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa  
doktori (PhD)

**Yetakchi tashkilot:**

**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Phd.03/30.12.2021. P.26.02 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «\_\_\_» \_\_\_ soat \_\_\_dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel.: (+99871) 276-82-32; faks: (+99871) 276-76-51; e-mail: [tdpu\\_kengash@edu.uz](mailto:tdpu_kengash@edu.uz) ).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin ( \_\_\_ raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel.: (+99871) 276-82-32.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2024 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_dagi \_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**F.A.Akramova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,  
psixologiya fanlari doktori, professor

**R.A.Abdurasulov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy  
kotibi, psixologiya fanlari doktori, professor

**Z.T.Nishonova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, psixologiya  
fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda ta'lim jarayoni sifati shaxsning boshlang'ich sinf o'quvchilik davridanoq intellektual salohiyati, mustaqil fikrlashi, aqliy va kasbiy tashabbuskorligi kabi psixologik determinantlari darajasi bilan belgilanadi. Intellektual rivojlanish ta'lim faoliyatining muhim tarkibiy qismi sifatida kognitiv qobiliyatlarni shakllantirishga bevosita yordam beradi. Mazkur jarayon tufayli yuqori darajadagi intellektual salohiyatga ega shaxsda voqelikni yetarli darajada idrok etishiga imkon berishi bilan birga ijtimoiy hayotga muvaffaqiyatli moslashish, aql-idrokni oshirish, intellektni rivojlantirish ta'minlanadi. Bu borada «... iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularda hamrohlik qilish va qo'llab-quvvatlash»<sup>1</sup> vazifasiga ustuvorlik berish orqali teran fikrlaydigan shaxs ta'limini amalga oshirish, kreativ yondashuvga e'tibor berish zarurati yuzaga keladi va mazkur muammoni ilmiy tadqiq etishni taqozo etadi.

Jahon ilmiy tadqiqot muassasalari va markazlarida aqlan yetuk, zukko o'quvchilar ta'limi jarayonlarining kengaytirilgan va boyitilgan maxsus dasturlar yaratish bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish va kreativ fikrlarini rivojlantirishni tadqiq etish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada o'quvchilarning intellektual salohiyatini kengaytirish mexanizmlaridan, kreativ fikrlashni shakllantirish va intellektual rivojlantirishga doir psixologik bilimlar tizimini modernizatsiyalash, ayniqsa, ijtimoiy muhit talablariga integratsiyalashning yoshga oid individual xususiyatlarini tadqiq etish, aqliy salohiyatni shakllantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlarini tizimlashtirish dolzarb muammolardan bo'lib qolmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda maktab va maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mashg'ulotlarni tashkil etishning yangi shakllarini tadbiq etish, ta'lim va tarbiyaning sifati va samaradorligini oshirish, o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishning zarur me'yoriy-huquqiy asoslari yaratilgan. «...Jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash ishida ...yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash va ro'yobga chiqarish zarur...»<sup>2</sup> etib belgilanganligi tadqiqot ishimizning ilmiy-nazariy yechimlarni topish uchun mustahkam asos yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-iyuldagi O'RQ-630-son «Innovatsion faoliyat to'g'risida»gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida», 2018-yil 27-iyuldagi PF-5466-son «Yoshlar – kelajagimiz» Davlat dasturi to'g'risida», 2020-yil 30-iyundagi PF-6017-son «O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida», 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son «O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida», O'zbekiston

<sup>1</sup>Федеральный закон «О молодежной политике в Российской Федерации». 30.12.2020 г. № 489. <http://www.kremlin.ru/acts/bank/46328>

<sup>2</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida» gi PF–60-sonli Farmoni//www.lex.uz

Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyuldagi PF-5106-son «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab quvvatlash to‘g‘risida»gi Farmonlari va boshqa me‘yoriy hujjatlar doirasida belgilangan keng ko‘lamli strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya ishi respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Respublikamiz pedagog-psixolog olimlaridan A.F.Azimova, Sh.R.Baratov, M.Vohidov, G.M.Davletshin, B.B.Djalalov, Sh.A.Dusmuxammedova, V.M.Karimova, R.N.Melibayeva, Z.T.Nishonova, B.R.Qodirov, K.B.Qodirov, E.Z.Usmonova, E.G‘.G‘oziyev va boshqalar tomonidan ta‘lim jarayoni ishtirokchilarida intellekt shakllanishining psixologik determinantlarini o‘rganish muammosiga oid ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi olimlaridan G.M.Andreyeva, V.V.Davidov, I.V.Dubrovina, V.N.Drujinin, L.S.Vigotskiy, D.B.Elkonin, A.N.Leontyev, B.K.Lisin, S.B.Malanova, A.M.Matyushkin, L.S.Obuxova, A.Petrovskiy, M.G.Yaroshevskiy, V.P.Zinchenko va boshqalar tomonidan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning aqliy rivojlanish masalalariga doir ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.

Xorij olimlaridan G.Ayzenk, M.Bingham, J.Edmondson, Erikson E.H, Higgins, D.N, G.Hofstede, J.R.Nuttin, Y.Peng, M.Rokeach, C.R.Rogers, R.Stenberg, S.Stryker, L.Termen, J.Turner, D.Veksler, A.S.Waterman, G.Ollport, L.Terstoun, V.Keller, K.Dunker, M.Vertgeymer, Dj.Kempion, J.Piaje, Dj.Brunner, L.Levi-Bryul va boshqalarning ilmiy ishlarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida intellekt va kreativlikning ko‘rgazmali-obrazli, mantiqiy-tafakkur bilan bog‘liq jihatlari tadqiq etilgan.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasini ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining PZ-20170923121 «Shaxs tarbiyasida milliy xususiyatlarni tadqiq etishning metodologik asoslarini takomillashtirish» amaliy loyihasi doirasida bajarilgan (2018-2020 yy.).

**Tadqiqotning maqsadi** boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida intellekt shakllanishining psixologik determinantlarini ochib berish asosida uni rivojlantirish bo‘yicha amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining intellektual shakllanishiga ta‘sir etuvchi psixologik determinantlarning o‘ziga xos jihatlarni ochib berish;

boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida intellekt shakllanishining tafakkur xususiyatlari bog‘liqligini asoslash;

boshlang'ich sinf o'quvchilarida axloqiy tushunchalarni tavsiflay olish, vaziyatlarni ma'naviy-axloqiy mohiyatining shaxslilik xususiyatlari bilan intellekti o'rtasidagi o'zaro korrelyatsion aloqadorlik ko'rsatkichlarini aniqlash va psixologik jihatdan asoslash;

o'quvchilarda intellektual xususiyatlarni shakllantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida boshlang'ich sinf o'quvchilarning intellektual rivojlanishini o'rganish jarayoni tanlangan bo'lib, tadqiqotga Buxoro viloyati Buxoro shahar 24, 27 - sonli umumta'lim maktablarining 115 nafar, Navoiy viloyati Navoiy shahar 11, 18 - sonli umumta'lim maktablarining 90 nafar boshlang'ich sinf o'quvchilari jalb etilgan, tadqiqotda ishtirok etgan respondentlarning umumiy soni 205 nafarni tashkil etdi.

**Tadqiqotning predmetini** boshlang'ich sinf o'quvchilarida intellektual shakllanishining psixologik determinantlari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda Dj.Ravenning «Progressiv matritsalar» metodikasi (o'quvchilar varianti), Peron-Ruzerning «Diqqat xususiyatlarini aniqlash» metodikasi, R.S.Nemovning «Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning tafakkurini o'rganish» metodikasi, Y.Turiyelning «Xatti-harakatni baholash» anketasi (Y.A.Kurganova va O.A.Karabanovalar modifikatsiyasi) dan foydalanildi. Olingan natijalarning statistik ishonchlilik darajasi matematik statistika metodlaridan guruhlar orasidagi o'zaro tafovutlar Studentning t-mezone, K.Pirsonning r-korrelyatsiya formulasi mezone orqali tasdiqlandi. Olingan ma'lumotlarni qayta ishlash uchun SPSS 28 (Ijtimoiy fanlar uchun statistik paket 28.0) dasturi imkoniyatlaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual shakllanishida bir necha g'oyalarni bir vaqtning o'zida shakllantira olish, masalani bir necha yechimini topa olish qobiliyatini obyekt ustida fikrlarni jamlay olish xususiyati bilan uyg'un namoyon bo'lishi tufayli, diqqat konsentratsiyasining ustuvor ta'sirga ega ekanligi dalillangan;

boshlang'ich sinf o'quvchilaridagi intellektual shakllanishi fikrlashning mantiqiyliigi, mazmundorligi, chuqurligi, kengligi sifatlarining divergent tafakkurga bog'liq ravishda ta'lim jarayonida dinamik rivojlanishi tufayli tafakkur xususiyatlarining darajaviy ifodalanishiga identiv ekanligi dalillangan;

boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual rivojlanishida tafakkurning mantiqiyliigi, mas'uliyatlilik, altruizm, javobgarlik, saxiylik sifatlarini o'zaro integrativ shakllanishi tufayli shaxs xatti-harakatlarini baholashning «axloqiylik» jihati ustuvor ta'sirga ega ekanligi dalillangan;

o'quvchilarda intellektual xususiyatlarni shakllantirish uchun divergent tafakkurni guruhviy va mantiqiy fikr yuritish ko'nikmasiga integrativ rivojlanishi kommunikativlik, hozirjavoblik sifatini ortishiga olib kelganligi tufayli ta'lim jarayoniga «mental arifmetika» mashg'ulotlarini kiritish muhimligi asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

boshlang'ich sinf o'quvchilarida intellekt shakllanishida ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarning darajaviy-qiyosiy natijalari tizimlashtirilgan;

o'quvchilarning o'quv faoliyati samaradorligini oshirishda shaxsiy xususiyatlarini takomillashtirishga yo'naltirilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

boshlang'ich sinf o'quvchilarini intellektual rivojlantirish bo'yicha psixologik korreksion treninglar dasturi ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tadqiqot obyekti ilmiy jihatdan asoslangan va xalqaro miqyosda tan olingan metodikalar orqali o'rganilganligi, empirik izlanishlar nazariy asoslab berilganligi va olingan natijalar aniq matematik-statistik metodlar yordamida qayta ishlab chiqilganligi va shu asosda psixologik interpretatsiya qilinganligi, olingan empirik-eksperimental ma'lumotlarning miqdoriy ko'rsatkichlarini qayta ishlash, interpretatsiya, korrelyatsion, omilli metodlar qo'llanilib, ma'lumotlar statistik qayta ishlash SPSS 28.0, (K.Rirsonning r-korrelyatsiya koeffitsienti mezonlari bo'yicha korrelyatsion tahlil, Studentning statistik t-mezone bo'yicha tajriba va nazorat guruhlaridagi tafovutlar tahlili) dasturlari yordamida amalga oshirilganligi bilan izohlangan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati psixologik natijalar va xulosalar boshlang'ich sinf o'quvchilarning intellektual rivojlanishini ta'minlash, ko'rgazmali-obrazli tafakkurni shakllantirish va ularning o'ziga xos jihatlari ifodalovchi mexanizmlarning yosh xususiyatlariga bog'liq qonuniyatlarining mohiyati tavsiflangan xulosalardan pedagogika va psixologiya yo'nalishlaridagi tadqiqot ishlarida manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan empirik ma'lumotlar umumta'lim maktablarida o'quvchilar bilan tashkil etiladigan amaliy mashg'ulotlar mazmunini, «Yosh va pedagogik psixologiya», «Differensial psixologiya» fanlaridan o'quv qo'llanma, darsliklar tayyorlashda, psixologik lug'atlarni takomillashtirishda hamda amaliyotchi psixologlarning malaka oshirish tizimida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Boshlang'ich sinf o'quvchilarida intellekt shakllanishining psixologik determinantlari olingan tadqiqot ishi natijalari asosida:

boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual shakllanishida bir necha g'oyalarni bir vaqtning o'zida shakllantira olish, masalani bir necha yechimini topa olish qobiliyatini obyekt ustida fikrlarni jamlay olish xususiyati bilan uyg'un namoyon bo'lishi tufayli, diqqat konsentratsiyasining ustuvor ta'sirga ega ekanligi dalillanganligiga oid ma'lumotlar Toshkent davlat pedagogika universiteti qoshidagi Psixologiya o'quv-ilmiy Markazining 2023-yil 23-noyabrdagi PM-89- son buyrug'iga asosan «Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya» moduliga kiritilgan. (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy Markazining 2023-yil 30-noyabrdagi PM-89-a-son ma'lumotnomasi). Natijada boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektiga ta'sir etuvchi psixologik determinantlarning o'ziga xos jihatlari ochib berilgan;

boshlang'ich sinf o'quvchilarida intellektual shakllanishi fikrlashning mantiqiyliigi, mazmundorligi, chuqurligi, kengligi sifatlarining divergent tafakkurga bog'liq ravishda ta'lim jarayonida dinamik rivojlanishi tufayli tafakkur

xususiyatlarining darajaviy ifodalanishiga identiv ekanligi dalillangan ma'lumotlar Toshkent davlat pedagogika universiteti qoshidagi Psixologiya o'quv-ilmiy Markazining 2023-yil 23-noyabrdagi PM-89-son buyrug'iga asosan «Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya» moduliga kiritilgan. (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy Markazining 2023-yil 30-noyabrdagi PM-89-a-son ma'lumotnomasi). Natijada boshlang'ich sinf o'quvchilarida intellektual shakllanishining tafakkur xususiyatlari bog'liqligi asoslangan;

boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual rivojlanishida tafakkurning mantiqiyliigi, mas'uliyatlilik, altruizm, javobgarlik, saxiylik sifatlarini o'zaro integrativ shakllanishi tufayli shaxs xatti-harakatlarini baholashning «axloqiylik» jihati ustuvor ta'sirga ega ekanligi dalillangan ma'lumotlar Toshkent davlat pedagogika universiteti qoshidagi Psixologiya o'quv-ilmiy Markazining 2023-yil 23-noyabrdagi PM-89-son buyrug'iga asosan «Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya» moduliga kiritilgan. (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy Markazining 2023-yil 30-noyabrdagi PM-89-a-son ma'lumotnomasi). Natijada boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy-axloqiy tushunchalarni tavsiflay olish, vaziyatlarni ma'naviy-axloqiy shaxslilik xususiyatlariga bog'liqligi asoslangan ma'lumotlar tizimlashtirilgan;

o'quvchilarda intellektual xususiyatlarni shakllantirish uchun divergent tafakkurni guruhii va mantiqii fikr yuritish ko'nikmasiga integrativ rivojlanishi kommunikativlik, hozirjavoblik sifatini ortishiga olib kelganligi tufayli ta'lim jarayoniga «mental arifmetika» mashg'ulotlarini kiritish muhimligi asoslangan ma'lumotlar Toshkent davlat pedagogika universiteti qoshidagi Psixologiya o'quv-ilmiy Markazining 2023-yil 23-noyabrdagi PM-89-son buyrug'iga asosan «Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya» moduliga kiritilgan. (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy Markazining 2023-yil 30-noyabrdagi PM-89-a-son ma'lumotnomasi). Natijada o'quvchilarda intellektual xususiyatlarni shakllantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 2 ta respublika va 5 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama etilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Tadqiqot mavzusi bo'yicha 15 ta ilmiy ish chop etilgan bo'lib, ulardan Oliy attestatsiya komissiyasining (PhD) dissertatsiya asosii ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 4 ta respublika va 2 ta xorijii jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Tadqiqot ishining hajmi ilovalardan tashqari 130 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSII MAZMUNI

Dissertatsion tadqiqotning kirish qismida mavzuning dolzarbliigi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi asoslangan; dissertatsiya bajarilgan oliii ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot rejalari bilan aloqadorligi ochib berilgan; tadqiqotning maqsad va

vazifalari, obykti, predmeti va tadqiqot metodlari ifodalangan; tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, olingan ma'lumotlarning ishonchliligi bayon etilgan, ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining tadbiqu va ularning sinovdan o'tishi bayon qilingan. Bundan tashqari chop etilgan ishlar va dissertatsiya hajmi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Intellektual rivojlanish fenomenining metodologik asoslari**» deb nomlangan birinchi bobi mazmuni ilmiy-nazariy tahlil asosida muammoning o'rganilganlik darajasini yoritishga qaratilgan bo'lib, Sharq mutafakkirlaridan Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Nasr Farobiy, Abu Abdullo Muhammad ibn Muso Al-Xorazmiy, G'iyosiddin Abdulfath Umar Ibrohim al Hayyom va boshqalarning pedagogik-psixologik g'oyalari, dissertatsiya mavzusi yo'nalishida xorijiy va o'zbekistonlik tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlari tahlil etilgan, o'quvchilarda intellektual rivojlanish muammosini o'rganish sohasida zamonaviy psixologiya fanida to'plangan tajribalar umumlashtirilgan. Sharhlangan materiallarga tayanilgan holda dissertatsiya ishining mazkur qismida intellekt, intellektual rivojlanish, boshlang'ich sinf o'quvchilarida intellekt shakllanishining psixologik determinantlari masalasi alohida kompleks tadqiqot predmeti bo'lmagani haqida xulosa qilinadi va bu yo'nalishdagi ishning dolzarbligini oshiradi.

«**Boshlang'ich sinf o'quvchilarida intellekt rivojlanishining empirik asoslari**» deb nomlangan ikkinchi bobda boshlang'ich sinf o'quvchilarida intellektual rivojlanish omillari namoyon bo'lish darajasini aniqlashga qaratilgan psixodiagnostik metodikalarning umumiy tavsifi, boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual rivojlanish darajalari bilan o'quvchilarning ma'naviy axloqiy sifatlarining aloqadorligini asoslashga e'tibor qaratiladi.

Dissertatsion tadqiqot ishimizda o'quvchilarda intellektual rivojlanish darajasini aniqlashga qaratilgan psixodiagnostik metodikalarning mazmuni, qo'llanilish tartibi hamda natijalar tahliliga doir materiallar keltirilgan. Dastlab tadqiqot ishimiz doirasida 2- va 4-sinf o'quvchilari intellektual rivojlanishining darajalari hamda o'quvchilarda ma'naviy va ma'rifiy sohaning rivojlanganlik darajasidagi farqlarni tekshirishga e'tiborimizni qaratdik. Buning uchun boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellekt darajalarini aniqlash maqsadida «Ravenning progressiv matritsalar» metodikasi o'tkazilib, empirik ma'lumotlar to'plandi (1-jadval).

### 1-jadval

#### **Boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellekt darajasi ko'rsatkichlari, n=205 (Styudent t-mezoni bo'yicha)**

<b>Respondentlar</b>	<b>N</b>	<b>M</b>	<b>SD</b>	<b>t</b>
2-sinf o'quvchilari	85	3.40	0.95	5.54**
4-sinf o'quvchilari	120	4.06	1.16	

Izoh: \*p < 0.05; \*\*p < 0.01; \*\*\*p < 0.001

M – O'rtacha arifmetik qiymat, SD – Standart og'ish, t-statistik farq ko'rsatkichi

1-jadval natijalariga ko'ra, ikkinchi sinf o'quvchilarida o'rtacha arifmetik qiymat 3.40 ni, to'rtinchi sinf o'quvchilarida esa bu ko'rsatkich 4.06 ni tashkil qilmoqda. Bundan ko'rinib turibdiki, 4-sinf o'quvchilarida ko'pincha aqliy harakatlar ustun bo'lishi har bir vaziyatni jiddiy qabul qilib hukm chiqarishda tafakkur operatsiyalariga suyanilishi yetakchilik qilar ekan.

## 2-jadval

### Boshlang'ich sinf o'quvchilarida Dj. Ravenning "Progressiv matritsalar metodikasi» bo'yicha olingan natijalar (n=205, % da)

Intellekt darajalari	2-sinf o'quvchilari n=85	4-sinf o'quvchilari n=120
Juda yuqori	18,8	26,8
Yuqori	27,0	30,1
O'rtacha	31,2	27,0
Quyi	17,2	12,0
Juda past	5,8	4,1
Jami:	100,0	100,0

2-jadvalda keltirilgan empirik natijalarga ko'ra, 2-sinf o'quvchilarida juda past intellekt darajasi (5,8 %), quyi intellekt (17,2%), o'rtacha intellekt (31,2%), yuqori intellekt (27 %), juda yuqori intellekt darajasi (18,8 %) ni tashkil etgan bo'lsa, 4-sinf o'quvchilarida esa juda past intellekt darajasi (4,1 %), quyi intellekt (12%), o'rtacha intellekt (27%), yuqori intellekt (30,1 %), juda yuqori intellekt darajasi (26,8%) ni tashkil etgan. Bu esa 2-sinf o'quvchilarida matritsalar bilan ishlash, turli ko'rinishdagi amallarni bajarishda bir qator muammolar mavjud ekanligini ko'rsatdi.

## 3-jadval

### Boshlang'ich sinf o'quvchilarida Peron-Ruzerning "Diqqat xususiyatlarini diagnostika qilish" metodikasining natijalari, n=205 %da

Diqqat konsentratsiyasi darajalari	Respondentlar soni	
	nafar	%
juda past	5	2,0
past	26	13,0
o'rta	131	64,0
yuqori	43	21,0

Topshiriqlarni tahlil qilib, 5 nafar o'quvchilarda diqqat konsentratsiyasi juda past darajada ekanligi aniqlandi, bu 2 % ni tashkil etadi. Bundan tashqari, 26 nafar o'quvchilarda diqqatni jamlashning past darajasini ko'rsatgani ma'lum bo'ldi, bu 12.7% ni tashkil etadi. 131 nafar o'quvchi konsentratsiyaning rivojlanish darajasi bo'yicha o'rtacha natija ko'rsatdi, bu 64% ga to'g'ri keladi. 43 nafar o'quvchilarda diqqat konsentratsiyaning yuqori darajada rivojlanishini ko'rsatdi, bu 21% ni tashkil qiladi.

Shunday qilib, tadqiqot natijalarini tahlil qilib, biz bolalarning 2,0 % foizida (5 nafar o‘quvchi) ixtiyoriy diqqatning rivojlanishi juda past darajada, bolalarning 13 foizida (26 nafar o‘quvchi) past rivojlanish darajasini ko‘rsatdi degan xulosaga keldik. Bolalarning 64 % (131 nafar o‘quvchi) ixtiyoriy diqqat rivojlanishining o‘rtacha darajasi, 21.0 % (43 nafar o‘quvchi) ixtiyoriy diqqatni rivojlantirishning yuqori darajasi aniqlangan.

#### 4-jadval

#### Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida intellekt va diqqat konsentratsiyasi o‘zaro korrelyatsion bolliqligi natijalari n=205; Pirsonning r-mezoni asosida

Respondentlar	Intellekt darajalari	Diqqat konsentratsiyasi darajalari			
		Yuqori	O‘rta	Past	Juda past
2-sinf o‘quvchilari	Juda yuqori	0,587***	0,496	0,364	0,352
	Yuqori	0,643***	0,503**	0,312	0,016
	O‘rtacha	0,458	0,523**	0,238	0,153
	Quyi	0,483	0,351	-0,413	-0,185
	Juda past	0,110	-0,179	0,189	0,047
4-sinf o‘quvchilari	Juda yuqori	0,798***	0,514**	0,546**	0,393
	Yuqori	0,498*	0,352	0,421	0,261
	O‘rtacha	0,395	0,501**	0,452	0,354
	Quyi	0,457	0,351	-0,153	0,323
	Juda past	0,287	-0,322	0,234	-0,142

Izoh: \* $p < 0.05$ ; \*\* $p < 0.01$ ; \*\*\* $p < 0.001$

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, 2-sinf o‘quvchilarida dastlabki intellektual rivojlanish omili hisoblangan «juda yuqori intellekt» 0,587\*\*\* ( $r=0.587$ ;  $p \leq 0,01$ ), «yuqori intellekt» 0,643\*\*\* ( $r=0.643$ ;  $p \leq 0,01$ ) diqqat konsentratsiyasining «yuqori» omillari o‘rtasida ishonchlik darajasidagi bog‘liqligi kuzatildi. Y’ani, 2-sinf o‘quvchilarida intellektual rivojlanish omillariga ta’sir etib turuvchi omillar sifatida diqqat konsentratsiyasining yuqori bo‘lishi o‘quvchilarning kognitiv jarayonlariga, intellektual rivojlanish omillari namoyon bo‘lishi bilan o‘quvchilarda divergent fikrlash rivojlanganligini ko‘rishimiz mumkin.

Tadqiqotimizning navbatdagi bosqichida o‘quvchilarda intellekt «darajalarini» baholash, tafakkur xususiyatlarini tadqiq qilish maqsadida R.S.Nemovning metodikasi imkoniyatlaridan foydalanildi, qo‘llanilgan metodika natijalari 5-jadvalda berilgan.

Tadqiqotimizning asosiy metodikalaridan biri bo'lgan o'quvchilari tafakkurini aniqlash metodikasi orqali ularda tafakkur xususiyatlarining darajaviy ko'rsatkichlarini aniqlash va intellektning rivojlanishidagi ta'sirini o'rganish maqsad qilindi.

### 5-jadval

#### R.S.Nemovning «Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning tafakkurini o'rganish» metodikasi natijalari n=205; Styudentning t -mezoni asosida

Tafakkur darajalari	2-sinf, n=85		4-sinf, n=120		Farqlanish	
	M	SD	M	SD	T	p
Juda yuqori	6,48	2,02	7,12	0,82	-1,046**	0,01
Yuqori	6,23	1,66	7,67	1,06	-2,054**	0,07
O'rta	7,56	1,75	6,78	0,93	-2,827*	0,05
Past	4,72	2,53	3,23	0,95	2,045**	0,01

Izoh.: \* $p < 0.05$ ; \*\*\*\* $p < 0.001$

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tafakkur darajalarini aniqlash maqsadida o'tkazilgan metodikaning empirik natijalariga diqqat qaratadigan bo'lsak, 4-sinf o'quvchilarida juda yuqori tafakkur darajasi 26,6 % (28 nafar o'quvchi), yuqori darajadagi tafakkur 32,3 % (34 nafar o'quvchi), o'rta darajadagi tafakkur 21 % (22 nafar o'quvchi), past darajadagi tafakkur 18% (19 nafar o'quvchi), juda past darajadagi tafakkur 2.1% (2 nafar o'quvchi) aniqlandi. Olingan natijalardan shunday xulosa qilishimiz mumkinki, boshlang'ich sinf o'quvchilarida tafakkur sifatlarini rivojlantiruvchi omil mexanizm sifatida mental arifmetika mashg'ulotlarining ijobiy samarasi borligi tajriba guruhidagi o'quvchilarning ko'rsatgan natijalari orqali ham asoslash mumkin.

### 6-jadval

#### Boshlang'ich sinf o'quvchilarida intellekt va tafakkur xususiyatlari o'rtasida o'zaro korrelyatsion bog'liqlik natijalari n=205; Pirsonning r-mezoni asosida

Respon- dentlar	Intellekt darajalari	Tafakkur xususiyatlarining darajalari				
		Juda yuqori	Yuqori	O'rtacha	Quyi	Juda past
2-sinf o'quvchilari	Juda yuqori	0,784***	0,596**	0,247	0,385	0,235
	Yuqori	0,695***	0,591**	0,512**	0,147	0,127
	O'rtacha	0,451	0,537**	0,138	0,234	0,185
	Quyi	0,432	0,451	-0,313	-0,285	0,241
	Juda past	0,210	-0,279	0,289	0,057	0,177
4-sinf o'quvchilari	Juda yuqori	0,851***	0,572**	0,521**	0,287	0,304
	Yuqori	0,553*	0,352	0,642**	0,261	0,135
	O'rtacha	0,403	0,523**	0,252	0,342	0,206
	Quyi	0,407	0,301	-0,171	0,214	0,186
	Juda past	0,256	0,372	0,237	-0,157	0,184

Izoh: \* $p < 0.05$ ; \*\* $p < 0.01$ ; \*\*\* $p < 0.001$

Tadqiqot natijalariga ko'ra, 2-sinf o'quvchilarida dastlabki intellektual rivojlanish omili hisoblangan «juda yuqori intellekt» 0,784\*\*\* ( $r=0,784$ ;  $p\leq 0,01$ ), «yuqori intellekt» 0,596\*\*\* ( $r=0,596$ ;  $p\leq 0,01$ ) tafakkur xususiyatlarining «yuqori» omillari o'rtasida ishonchlilik darajasidagi bog'liqlik kuzatildi. Masalan, 4-sinf o'quvchilarida intellektual rivojlanish omillariga ta'sir etuvchi sifatida tafakkur xususiyatlarining yuqori bo'lishi o'quvchilarning kognitiv jarayonlariga, kreativ fikrlash qobiliyatida, intellektual rivojlanish omillari namoyon bo'lishi bilan o'quvchilarda divergent fikrlash rivojlanganligini ko'rishimiz mumkin. Bunda ushbu holat bevosita o'quvchilarning barcha faoliyatlarida yaqqol kuzatildi. Qo'llanilgan metodika natijalari 6-jadvalda berilgan.

#### 7-jadval

#### Boshlang'ich sinf o'quvchilarida "Xatti-harakatlarni baholash" metodikasi natijalari, n=205; % da

Respondentlar	Past	O'rta	Yuqori
2-sinf, n=85	10.5	76.4	13
4-sinf, n=120	10.8	69.1	20

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy va ma'rifiy xatti-harakatlarini baholash maqsadida o'tkazilgan tadqiqot metodikasining empirik natijalariga diqqat qaratadigan bo'lsak, dastlab 2 - va 4-sinf o'quvchilarining ma'naviy va ma'rifiy holatlari o'rganilganida: 2-sinf o'quvchilarda xatti-harakatni baholashning «past» darajasi 10,5% (9 nafar o'quvchi), «o'rta» darajasi 76,4 % (65 nafar o'quvchi), «yuqori» daraja esa 13% (11 nafar o'quvchi) da yuqori daraja qayd etildi.

#### 8-jadval

#### «Tajriba» va «nazorat» guruhidagi o'quvchilarda intellekt darajalarini aniqlash orqali olingan empirik natijalar, n=205

Respondentlar	M	SD	t
Tajriba guruhi, n=105	5.08	1.22	6.73***
Nazorat guruhi, n=100	4.73	1.20	

*Izoh: tajriba guruhi - mashg'ulotlar bilan shug'ullangan o'quvchilar;  
nazorat guruhi - mashg'ulotlar bilan shug'ullanmagan o'quvchilar.*

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy va ma'rifiy xatti-harakatlarini baholash maqsadida o'tkazilgan tadqiqot metodikasining empirik natijalariga diqqat qaratadigan bo'lsak, «mental arifmetika mashg'ulotlari bilan shug'ullangan» va «mental arifmetika mashg'ulotlari bilan shug'ullanmagan» o'quvchilarning ma'naviy va ma'rifiy holatlari o'rganilganda «mental arifmetika mashg'ulotlari bilan shug'ullangan» o'quvchilarining xatti-harakatni baholashning «past» darajasi 5,7%,

«oʻrta» darajasi 58%, «yuqori» daraja 36,1% oʻquvchilarda yuqori darajalari qayd etildi.

**9-jadval**

**Boshlangʻich sinf oʻquvchilarida «Xatti-harakatlarni baholash» metodikasi natijalari, % da**

<b>Respondentlar</b>	<b>Past</b>	<b>Oʻrta</b>	<b>Yuqori</b>
Tajriba guruhi, n=105	5.7	58	36.1
Nazorat guruhi, n=100	18	69	13

«Mental arifmetika mashgʻulotlari bilan shugʻullanmagan» oʻquvchilarda maʼnaviy va maʼrifiy xatti-harakatlarni oʻrganishda oʻquvchilarning xatti-harakatni baholashning «past» darajasi 18%, «oʻrta» darajasi 69%, «yuqori» daraja esa 13% oʻquvchilarda xatti-harakatni baholashning yuqori darajalari qayd etildi.

**10-jadval**

**Boshlangʻich sinf oʻquvchilarida J.Ravanning «Progressiv matritsalar» metodikasi va «Xatti-harakatlarni baholash» metodikalari orasidagi korrelyatsion bogʻliqlik, n=205**

<b>Intellekt darajalari</b>	<b>Konvensial normalar</b>	<b>Axloqiy normalar</b>
Juda yuqori	0,75**	0,65*
Yuqori	0,77**	0,58*
Oʻrtacha	0,55*	0,57*
Quyi	-0,69	0,52*
Juda past	0,43	0,54

Oʻquvchilarda intellektual rivojlanish omillari va maʼnaviy-maʼrifiy xatti-harakatlarni baholash maqsadida oʻtkazilgan tadqiqot metodikalarining korrelyatsion natijalariga diqqat qaratadigan boʻlsak, intellekt sifatlarini aniqlashning «juda yuqori intellekt» mezonni «Konvensial normalar» 0,75(\*\*) «Axloqiy normalar», 0,65(\*) mezonlari oʻzaro musbat korrelyatsiya berganini koʻrish mumkin. Yaʼni, intellektual jihatdan rivojlangan oʻquvchilarda konvensial (maktab qoidalari va ijtimoiy hayotning turli sohalaridagi etiket normalari: tashqi koʻrinish, maktab va jamoat joylarida oʻzini tutish qoidalari) hamda axloqiy normalar (yordamlashish, saxiylik, oʻz soʻzi va ishiga javobgarlik, haqorat va boshqalarni xafa qilmaslik, moddiy zarar uchun masʼuliyat, altruizm, murakkab hayotiy vaziyatlarga tushib qolganlarni qoʻllab-quvvatlash sifatlarining rivojlanishi mumkinligini koʻrishimiz mumkin.

Boshlangʻich sinf oʻquvchilarida intellekt sifatlarini aniqlashning «yuqori intellekt» mezonni «Konvensial normalar» 0,77(\*\*) «Axloqiy normalar» 0,57(\*) mezonlari oʻzaro manfiy korrelyatsiya berganini koʻrish mumkin. Bu shuni

anglatadiki, o'quvchilarda intellektual rivojlanishning yuqori bo'lishi shaxsda konvensial va axloqiy sifatlarning ham rivojlanganligini bildirmoqda.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi «**Boshlang'ich sinf o'quvchilarini intellektual rivojlantirishning korreksion usullari**» deb nomlanib, unda boshlang'ich sinf o'quvchilarning intellektual taraqqiyotini rivojlantirish maqsadida olib borilgan mashg'ulotlar asosida o'quvchilarning intellektual rivojlanish dinamikasiga doir masalalar qamrab olingan. Mazkur bobda boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun psixologik trening mashg'ulotlari ishlab chiqilib, tajriba-sinov jarayoniga tadbiiq etildi.

Bu esa o'quvchilarda intellektning aqliy faoliyati jarayonida ahamiyatini yanada oshirish va ta'minlash uchun maxsus yondashuvni ta'minlaydi. Bunda Buxoro va Navoiy viloyatidagi umumta'lim maktablari 205 nafar o'quvchilarida intellektual rivojlanish daraja ko'rsatkichi nisbatan past chiqqan o'quvchilarning 105 nafari tajriba guruhi uchun tanlab olindi.

Respondentlarni shakllantiruvchi eksperimentga tanlashda tadqiqotimiz asosiy metodlaridan biri bo'lgan J.Ravenning «Progressiv matritsalar» metodikasi natijalari asos qilib olindi. Ya'ni, J.Ravenning «Progressiv matritsalar» metodikasi mezonlari bo'yicha past natija ko'rsatgan o'quvchilar tajriba guruhiga tanlab olindi. Tajriba guruhiga o'quvchilarning barchasida intellektual rivojlanish darajasining ko'rsatkichlari past natija qayd etgan. Tadqiqot dasturimiz orqali «tajriba» guruhidagi o'quvchilarning intellektual rivojlanish ko'rsatkichlarini yaxshilashga harakat qildik.

Psixokorreksion dasturdagi mashg'ulotlarni haftada 2 kun 1-1,5 soatdan to'rt hafta davomida olib bordik. Har bir mashg'ulotning mashqlarini tashkillashtirishda ekspert va yordamchi sifatida maktab amaliyotchi psixologi jalb etildi. Amaliyotchi psixolog tegishli ko'rsatmalar asosida psixokorreksion mashg'ulotlarni tashkillashtirishda ishtirok etdi. Shuningdek, psixokorreksion dasturning samaradorligini aniqlash uchun biz nazorat tajribasini ham o'tkazdik.

